

**O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining
tizim tashkilotlar tomonidan 2025 yil o'tgan davrida amalga oshirgan dolzarb vazifalar
to'g'risida
MA'LUMOT**

I. O'zbekiston standartlar instituti

1. 2025 yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlar:

Me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash bo'yicha:

Tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga **4495 ta** (rejaga nisbatan **3 baravarga ko'p**) standart foydalanish uchun yetkazildi.

Transport vositalariga VIN (WMI) kodini berish bo'yicha:

Korxona va tashkilotlarning murojaatlariga asosan transport vositalariga **19 dona** identifikatsiya VIN (WMI) kodi berildi.

Shtrix kod berish bo'yicha:

Korxona va tashkilotlarning murojaatlariga asosan davlat reestriga kiritish uchun **988 ta** buyurtma qabul qilinib, ishlab chiqarilgan maxsulotlarga **6007 dona** shtrix kod asl nusxa maketlari tayyorlab berildi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishida:

Standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida 2025 yil yanvar-avgust oylarida **3953 nafar** (rejaga nisbatan **150,3%ga**) mutaxassislar malakasi oshirildi.

20 ming nafar mutaxassisning bilim va ko'nikmasini oshirish:

Tadbirkorlik sub'ektlari va ishlab chiqarish korxonalarining 2025 yil **yanvar-avgust** oylarida **15 051 nafar** (rejaga nisbatan **103,1%ga**) mutaxassislarini malakasi oshirildi.

Muvofiqlikni baholash yo'nalishida:

Standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida **2 677 nafar** (rejaga nisbatan **116,1 %ga**) mutaxassislar attestatsiyadan o'tkazildi.

Tadbirkorlarga uslubiy ko'mak ko'rsatish yo'nalishida:

"STANDART" ilmiy-texnik jurnalini elektron shaklini **4 386 ta** (rejaga nisbatan **109,7%ga**) tadbirkorlik sub'ektlariga tarqatildi.

Savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish yo'nalishida:

Jahon savdo tashkiloti talablari va **GSP+** doirasida vazirlik va idoralarning buyurtmasiga muvofiq Agentlikdan belgilab berilgan KPI eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini bajarish rejasiga asosan amalda **1197 ta** (rejaga nisbatan **1170 ta o'rniga amalda 102,3%ga bajarilgan**) xalqaro standartlar asl tilda qabul qilindi.

Soha tarmoqlari bo'yicha **3 094 ta** (rejaga nisbatan **171,9 %ga**) standartlarning Jahon savdo tashkilotiga mosligini ko'rib chiqilishi ta'minlandi.

Standartlashtirish yo'nalishida:

360 ta tashkilot standartlari (TS) o'rniga **36 ta** (rejaga nisbatan **112,5%ga**) milliy standartlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Standartlarni ekspertiza qilish yo'nalishida:

299 ta milliy standartlar loyihalari ekspertizadan o'tkazilib, belgilangan reja **3,6 baravarga** bajarildi.

Standartlarning yagona axborot bazasi yo'nalishida:

Fondagi milliy standartlar salmog'ini Xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish darajasi amalda **39,6 %ga** (rejaga nisbatan **110,0%**) yetkazildi.

Texnik qo'mitalar faoliyatini muvofiqlashtirish yo'nalishida:

34 ta texnik qo'mita faoliyati to'liq yo'lga qo'yilib, texnik qo'mita a'zolari soni **839 nafarga** yetkazildi.

109 ta Davlatlararo texnik qo'mita (MTK) faoliyatida **109 nafar** vakolatli vakillar, **47 nafar** kuzatuvchilar, **15 nafar** ekspertlar - JAMI: **171 ta** vakil mazkur davlatlararo texnik qo'mitalarda O'zbekiston Respublikasi nomidan faoliyat yuritmoqdalar.

Hisobot davrida **145 dan** ortiq loyiha ko'rib chiqilib, takliflar kiritildi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) texnik qo'mitalari faoliyatida **43 nafar** mutaxassis "to'laqonli", **251 nafar** mutaxassis "kuzatuvchi" maqomida ishtirok etishi ta'minlandi.

Hisobot davrida **58 ta** ISO texnik qo'mitasi doirasida jami **118 ta** loyiha ko'rib chiqilib, ovoz berildi. (**32 ta** loyiha o'rganish jarayonida).

Xalqaro Elektrotexnika Qo'mitasi (IEC) texnik qo'mitasi faoliyatida **4 nafar** mutaxassislar "to'laqonli" a'zo maqomida ishtirok etmoqda.

Hisobot davrida mutaxassislar tomonidan **32 ta** xalqaro standart loyihalari ko'rib chiqilib, takliflar kiritildi.

II. "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DM

2025 yil o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlar **Sinov laboratoriyalarini modernizatsiya qilish yo'nalishida:**

Markaz tomonidan sinov laboratoriyalami akkreditatsiya talablariga moslashtirish, akkreditatsiya sohasini kengaytirish, yangi sinov usullarini qamrab olish maqsadida, jami **622 ta** o'lchash vositalari xarid qilindi.

Yanvar-avgust oylarida jami **87 129 ta** sinov bayonnomalari rasmiylashtirildi.

Yanvar-avgust oylarida **121 ta** maxsulotlar **sifatsizligi** aniqlandi.

Laboratoriyalar sinov ko'rsatkichini 1 883 taga yetkazish:

Yil boshidan **1 515 ta** sinov ko'rsatkichiga kengaytirildi. **199 ta** sinov ko'rsatkichlari bo'yicha audit bo'lib o'tdi. **981 ta** sinov ko'rsatkichlarini o'zlashtirish bo'yicha Akkreditatsiya markaziga ariza taqdim etildi.

Namangan viloyati "**Yuksalish**" kichik sanoat zonasi hududida tashkil etilishi belgilangan barcha yo'nalishlar bo'yicha sinash va o'lchash vositalari xaridi yuzasidan jami **60 ta** shartnomalar imzolangan. Bunda, jami **177 ta** sinov uskunolari yetkazib berilishi belgilangan. Shundan, hozirgi kunga qadar **175 ta** sinov uskunolari yetkazib berildi. Qolgan **2 ta** uskunalar joriy yil 25 sentyabr kuniga qadar yetkazib berilishi rejalashtirilgan. Hozirda ushbu uskunalami o'rnatish, ishga tushirish, shuningdek, xodimlarni o'qitish ishlari olib borilmoqda.

"**ANGLESEY FOOD**" MChJ XK "Korzinka" savdo belgisi ostida faoliyat olib boradigan savdolar tamog'larini tashkil etayotgan logistika markazida "O'zTest" DMga maydon ajratilishiga kelishildi. Hamkorlikda laboratoriya loyihasi ishlab chiqildi. Markaz laboratoriyasida tekshirilgan mahsulotlar markirovkasiga "O'zTest" tomonidan maqullangan logotip qo'shildi. Korzinka.uz tomonidan taqdim etilgan **6 000 xil** ortiq nomlanishdagi mahsulotlar tahlili o'tkazildi va asosiy ko'rsatkichlari umumlashtirilib, zaruriy sinov uskunalar va sinov ko'rsatkichlar ro'yxati taqdim etildi. Hozirda qurilish va montaj ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, "Korzinka" brendi taqdim etayotgan mahsulotlar "UzTest" DM laboratoriya tomonidan sinovlar o'tkazilib, mahsulot markirovkasiga "UzTest" DM tomonidan maqullangan tamg'asini qo'yish amaliyoti joriy etildi.

6 ta sinov laboratoriyasini ishga tushirish:

1. Maishiy konditsionerlar va **sovutkichlarni energiya samaradorligini** baholash bo'yicha sinash uskunalaridan ijara shartnoma asosida foydalanish yuzasidan "**Texnopark**" MChJ bilan hamkorlikda akkreditatsiya sohasi kengaytirildi.

2. Akustik laboratoriyaga zarur uskunalami xarid qilish bo'yicha 2024 yil 17 dekabrda "**Exporta s.r.o.**" (*Chexiya*) kompaniyasi bilan shartnoma imzolandi;

3. Oyna mahsulotlari sinash bo'yicha ijara shartnomasi "**Kvarts**" AJ bilan imzolandi. **19 ta** sinov usuliga akkreditatsiya sohasi kengaytirildi.

4. "Quality and Safety-Testing" sinov laboratoriyasi avtotransport vositalarini ko'ndalang statistik barqarorlik burchagini aniqlash imkonini beruvchi sinov vositalarini beg'araz yetkazib berish bo'yicha "**Toshkent Traktor Zavodi**" MChJ bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi.

5. O'yinchoq mahsulotini sinovini xavfsizlik ko'rsatkichlariga kengaytirish maqsadida Jaxon banki uskunalaridan oqilona foydalanish va ularni qayta yo'naltirish orqali Qashqadaryo filialidagi **Gaz**

xromatografi - MS, Buxoro filialidagi ikkinchi **VEJX** uskunalarini foydalanish rejalashtirilmoqda. Akkreditatsiya markaziga akkreditatsiya sohasini kengaytirish yuzasidan ariza taqdim etildi.

6. Isitish radiatorlarini sinash **bo'yicha "Akfa Group"** kompaniyasining **"Texnik sinovlar" MChJ** bilan hamkorlikda tashkil qilindi. Akkreditatsiya markaziga ariza berilib, Akkreditatsiya sohasi kengaytirildi.

Sertifikatlash yo'nalishida:

Yanvar-avgust oylarida mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlari tomonidan jami **24 274 ta**, shundan, *7 chizma 21 359 ta, 3 chizma 2 912 ta, 4 chizma 3 ta* muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirildi.

Yanvar-avgust oylarida **5 ta** holatda mahsulot **sifatsizligi** aniqlanib, mahsulotlar **yaroqsiz deb topildi**.

O'tgan davr mobaynida **"Xorazm"** mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM tomonidan 2025 yil 7 mart kuni **O'ZAK.MS.0114-son** bilan, **"Toshkent-1"** mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM tomonidan **O'ZAK.MS.0115-son** bilan, **"Toshkent-2"** mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM tomonidan 2025 yil 12 may kuni **O'ZAK.MS.0117-son** bilan milliy akkreditatsiya tizimi reestrda ro'yxatdan o'tkazildi.

"Mashinasozlik va metall" mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi akkreditatsiya guvohnomasi 2025 yil 8 aprelda qayta tiklandi.

Sifat menejmenti tizimlari yo'nalishida:

Eksportchi korxonalarga xalqaro sifat tizimlarini joriy etishni kengaytirish maqsadida **1,6 mingta** korxonalarda **xalqaro sifat tizimlarini** joriy etish belgilangan bo'lib, joriy yil boshidan **1017 ta** korxonalarga menejment tizimlari joriy qilinishiga ko'maklashilib, **muvofiqlik sertifikatlari** rasmiylashtirildi.

Menejment tizimlarini sertifikatlash idorasi 2025 yilda **IQNet** xalqaro tashkilotiga to'laqonli a'zolikka qabul qilinishiga erishish maqsadida Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi akkreditatsiya doirasini **ISO 22003-1:2022** va **ISO 50001:2019** standartlariga kengaytirish bo'yicha Akkreditatsiya markazi tomonidan 2024 yil 28-29 noyabr kunlari audit o'tkazildi. Audit natijalariga ko'ra, aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilib, Akkreditatsiya markazining 06/121-son xabarnomasiga asosan Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi akkreditatsiya doirasi **ISO 22000** va **ISO 50001** standartlariga kengaytirildi. Shuningdek **oziq-ovqat mahsulotlari** buyicha **ISO 9001** xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiya doirasi kengaytirildi.

Eksportga ko'maklashish yo'nalishida:

Yanvar-avgust oylari davomida hududlardagi **1298 ta** (avgust oyida **128 ta**) eksportyor korxonaga sohaga oid **1536 ta** amaliy yordam va konsultativ xizmatlar ko'rsatildi, xorijiy davlatlar hamda xalqaro standartlar talablari yetkazildi.

Amaliy yordamlar ko'rsatilgan korxonalar tomonidan **Vengriya, Litva, Albaniya, Kolumbiya, AQSh, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Afg'oniston, Rossiya, Ozarbayjon, Moldova, Belorussiya, Livan, Turkiya, Iroq va Dubayga** mahalliy mahsulotlar eksport qilindi.

Amaliy yordam ko'rsatilgan korxonalar:

Hududlardagi **106 ta** eksportyor korxonaga **266 ta** muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirildi (*125 ta sertifikat va 141 ta sinovlar*).

Eksportyor korxonalarni sohaga oid imtiyozlar va yangiliklar bilan keng tanishtirishda Agentlik, Standartlar instituti va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan seminar-treninglarda **1385 ta** eksportchi korxonadan **1710** dan ortiq xodimlarning (*onlayn-offlayn*) ishtiroki ta'minlandi.

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish yo'nalishida:

Yanvar-avgust oylarida turli yo'nalishlarda **600 nafar** xodimlar malakalari oshirildi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tavsiya qilingan bitiruvchilar va Markaz saytida e'lon berilgan bo'sh ish o'rinlariga suhbat o'tkazilib, **15 nafar** bitiruvchilar Markaz va uning hududiy filiallari sinov laboratoriyalar majmuasiga ishga qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 martdagi 177-son Qaroriga asosan, O'zbekiston Standartlar institutida 240 nafar malaka oshirgan, shuningdek, 237 nafar xodimlar attestatsiyadan o'tgan, 3 nafari o'ta olmagan.

5 ta Oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan o'zaro hamkorlik shartnomalarga asosan tanishuv, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyoti bo'yicha 68 nafar talaba amaliyot o'tadi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tavsiya qilingan bitiruvchilar bilan suhbat o'tkazilib, 12 nafar bitiruvchi sinov laboratoriyalar majmuasiga ishga qabul qilindi.

Markazda 44 nafar xodim bilan yangi mehnat shartnomalari tuzilib, 25 nafar xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilindi.

Ilm fan yo'nalishida:

Markazda faoliyat olib borayotgan xodimlarning 136 nafari bakalavr, 146 nafari magistr diplomiga ega, 2024 yilda (*PhD*) ilmiy darajaga ega xodimlar soni 3 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga ularning soni 6 taga yetkazildi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichi tayanch doktoranturada Markazdagi laboratoriyalar va hududiy filiallarida faoliyat olib borayotgan 19 nafar xodimlar mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

2025-2026 o'quv yili uchun magistraturaga hujjat topshirmoqchi bo'lganlar soni 23 nafarni tashkil etadi. Sohada kadrlar yuqori malakali bo'lishi, zamonaviy talablarga mos keladigan, ilmiy asoslangan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari maqsadida, 05.03.01 Asboblar. O'lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo'yicha) ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchilik shaklidagi oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi – tayanch doktorantura tashkil etildi. Markazda tashkil etilgan doktorantura o'qishiga 2025-yil II-choragi uchun mustaqil tadqiqotchilikka 3 nafar talabgor qabul qilingan bo'lsa, III-choragi uchun 2 nafar talabgor qabul qilindi.

"Ilmiy-sinov va sifat nazorati" ilmiy-texnik jumali faoliyatini yo'lga qo'yildi. Jurnal davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida №629849 son litsenziyaga va ISSN 3060-5539 raqamiga ega. Bugungi kunga qadar, jurnalning 3 ta soni nashr etildi.

Doktorantura, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya ishlari, OTM professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalar, dasturlar va monografiyalar uchun belgilangan tartibda taqrizlar berib borilmoqda (10 ta ilmiy ishlar bo'yicha taqrizlar yozib berildi).

Xodimlarning intellektual mulk agentligidan olingan mualliflik xuquqlari soni jami 6 tani tashkil etadi. Bular 2 ta ixtiro patenti, 1 ta foydali model patenti, 3 ta dasturiy ta'minot uchun olingan DGU hujjatlaridan iborat.

Ilmiy ma'lumotlar bazasi hisoblangan PIVOT-RP da mavjud ma'lumotlarni o'rganib chiqish, ushbu bazadan to'laqonli va imtiyozli foydalanish uchun "O'zTest" DM rasmiy ro'yxatdan o'tdi.

III. O'zbekiston milliy metrologiya instituti

1. 2025 yil o'tgan davrida Milliy etalonlar bazasini rivojlantirish, laboratoriyalarni modernizatsiya qilish hamda infratuzilma yaratish bo'yicha

2024 yilda moliyalashtirilgan jami 7 ta (*Suyuqliklarning elektr o'tkazuvchanligi birligi, G'adir budirlik kattaliklari, Hajm o'lchash birligi, rN va rX etalonlari, Sath o'lchachagichlarini tekshirish uchun namunali qurilma, Gradus — tekis burchak birlik etaloni*) etalonlari keltirilib, etalonlar soni 36 taga yetkazildi.

Joriy yilning sentyabr oyida Birlamchi nisbiy namlik birligi etaloni va etalon-dinamometr keltirilishi kutilmoqda.

2025 yilda 9 ta etalon xarid qilish belgilangan. Texnik topshiriqlar ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazish maqsadida "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKga taqdim etildi.

Hisobot kuniga byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilangan 9 ta etalondan 5 tasi uchun mablag' ajratildi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni va PQ-91-son qarori ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida 2025 yilda Davlat byudjetidan

moliyalashtirishga **qolgan 4 ta** yuqori aniqlikdagi etalonlar uchun talab etiladigan mablag'ni ajratilishida Iqtisodiyot va moliya vazirligiga murojaat yuborildi (*Agentlikning 25 iyuldagi 02-17-2859-sonli xati*).

Bundan tashqari, laboratoriyalarning moddiy-texnik bazasini yanada takomillashtirish maqsadida jami **101 ta** (*shundan 91 tasi hududiy filiallar*) o'lchash vositalari va yordamchi uskunalar xarid qilindi.

Shuningdek, Gaz qorishmalarini tayyorlash bo'yicha laboratoriya kompleksini (gaz xromatograflari) xarid qilish bo'yicha tender hujjatlari belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazildi va tegishli xulosalari olingan.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha:

Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining (BIPM) a'zosi sifatida qo'shilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi **Qonun** hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiining **qaror** loyihalari ishlab chiqilib, **Vazirlar Mahkamasiga kiritildi**.

Xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti (*OIML*) hujjatlari asosida metrologik me'yor va qoidalarni qabul qilish reja-jadvaliga asosan jami **20 ta** milliy **standart** qabul qilish rejalashtirilgan bo'lib, **9 tasi** o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinib, **11 tasi** o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olish uchun 27 iyun kuni Standartlar institutiga kiritildi.

Hozirgi kunda Standartlar instituti tomonidan ekspertiza amalga oshirilmoqda.

O'lchashlar yagona birlikda bo'lishni ta'minlash borasida jami **15 ta** milliy **standartlar** (*qonunlashtiruvchi metrologiya, ionlovchi nurlanish, putur etkazmasdan tekshirish, yoqilg'i, o'lchashlarni bajarish uslubiyyoti, elektr va magnetizm, turini tasdiqlash, gaz sarfi va bosim yo'nalishlari*) **ishlab chiqilib, 11 ta** standart o'rnatilgan tartibda tasdiqlanib, **1 tasi** Standartlarni **jamoatchilik muhokamasiga, 1 tasi** Metrologiya bo'yicha standartlashtirish **milliy texnik qo'mitaga** kiritildi hamda **1 tasi** Standartlar institutiga kiritildi.

Xalqaro darajada etirof etilish bo'yicha

Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining (*BIPM*) bazasida Respublikamizning kalibrlash va o'lchash imkoniyatlari to'g'risidagi yozuvlari (*SMS-qatorlar*) radiatsiya yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha **3 taga kengaytirilib**, ularning soni **8 taga yetkazildi**.

Shuningdek, *SMS-qatorlar* sonini yanada kengaytirish maqsadida KOOMYeT doirasida **3 ta yangi** (*vaqt va chastota yo'nalishi*) solishtirish loyihasiga qo'shib, ishtirok etilayotgan solishtirish loyihalari **29 taga yetkazildi**.

Bundan tashqari, **24-25 aprel** kunlari KOOMYeT Prezidenti Kengashining navbatdagi **40-yig'ilishi** ilk bora O'zbekistonda bo'lib o'tdi.

Shuningdek, KOOMYeTning **20-21 avgust** kuni KOOMYeTning "**Uzunlik va burchak**" texnik qo'mitasining (TQ 1.5) 22-yig'ilishi hamda **26–28 avgust** kunlari "**Akustika, ultratovush, tebranish**" texnik qo'mitasi (TQ 1.2)ning navbatdagi –19-yig'ilishi Toshkentda o'tkazildi.

Qo'shimcha ravishda, "**INNOPROM. Markaziy Osiyo – 2025**" doirasida **ilk bor** texnik jihatdan tartibga solish va standartlashtirish sohasiga bag'ishlangan **plenar sessiyasi** bo'lib o'tdi.

Institut kalibrlash laboratoriyalarda **ISO/IEC 17025** xalqaro standartga asosan joriy etilgan **sifat tizimi** qo'shimcha o'lchash yo'nalishlari (*akustika, vaqt va chastota, g'adr-budirlik, kuch va kuch momenti, gaz va suyuqliklar sarfi, kichik hajm, dozimetri, kontaktli termometriya*) bo'yicha **kengaytirildi**.

Grant va texnik ko'mak loyihalarini jalb qilish bo'yicha

Rossiyaning "ROSSTANDART" Agentligi bilan birgalikda "O'zbekiston Respublikasida metrologiya sohasida texnik ko'mak ko'rsatish" Memorandumi doirasida birinchi uskuna qabul qilindi.

Saudiya Arabistonning "ACWA Power" kompaniyasi bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasida shamol va quyosh energetikasi metrologiyasini joriy qilish bo'yicha loyiha doirasida "**NOMAC**" kompaniyasi bilan hamkorlik shartnomasi imzolandi.

O'zbekiston milliy metrologiya instituti negizida ilmiy tadqiqotlar uchun "Kvant metrologiyasi markazini barpo etish" loyihasini amalga oshirish bo'yicha **Xitoyning CIDCA** (*Xitoy xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligi*) agentligi bilan muzokaralar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ilg'or metrologiya, ilmiy-tadqiqot ishlari va texnologiyalar transferi orqali kichik va o'rta korxonalar barqarorligini rivojlantirish" loyihasi (*R&D markaz*) **Koreyaning** Texnologiyalarni Rivojlantirish Instituti (*Korea Institute for the Advancement of Technology – KIAT*) tomonidan ma'qullandi.

Germaniyaning Fizik-texnik instituti (RTV) bilan “Milliy sifat infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasining 2-fazasini amalga oshirish borasida Berlin shahrida Germaniya Federal fizika-texnik instituti (RTV) bilan hamkorlikda **kelishuv imzolandi**.

Germaniyaning KfW banki hamkorligida “*Tibbiyot sohasida o'lchash vositalarini metrologiya tekshiruvidan o'tkazish laboratoriyasi*”ni yaratish bo'yicha Hukumat tomonidan tegishli topshiriq olinib, belgilangan tartibda ishlar amalga oshirilmoqda.

Qo'shimcha ravishda, Slovakiya va Chexiya davlatlarining metrologiya institutlari bilan rejalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish yuzasidan Bitim loyihalarini ishlab chiqish, kelishish, yuqori darajadagi tadbirlar doirasida imzolash choralari ko'rilmoqda.

Gaz sarfini o'lchash laboratoriyasini xalqaro andozalarga muvofiq **takomillashtirish** maqsadida **Italiyada** ishlab chiqilgan gaz hisoblagichlarini qiyoslash uskunasi keltirilib, ishga tushurildi.

Ilmiy salohiyatni kengaytirish hamda metrolog mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini oshirish borasida

Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e'lon qilingan (93-tur) Ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida bajariladigan amaliy tadqiqot loyihalari tanlovida **7 ta** etalon va yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini **yaratish** maqsadida loyiha pasportlari taqdim etilgan bo'lib, hozirda **2 ta** loyiha Xay'at tomonidan **moliyaltirishga tavsiya etilgan** va hozirgi kunda amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, **1 ta** loyiha navbatdagi Ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida bajariladigan amaliy tadqiqot loyihalari tanloviga **qayta kiritildi**.

Hozirda ekspertiza jarayoni amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda institutda **62 nafar** mustaqil tadqiqotchi (*Phd*) mavjud.

Institut mutaxassislarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida 05.03.02 - Metrologiya va metrologiya ta'minoti ixtisosligi bo'yicha **avgust** oyida **24 nafar** (shundan **21 nafar O'zbekiston milliy metrologiya instituti qoshida tayanch doktoranturasiga qabul qilindi**) mutaxassislari PhD maqomiga ega bo'lish maqsadida mustaqil izlanuvchi sifatida qabul qilindi.

Xodimlar malakasini hamda ilmiy salohiyatni oshirish bo'yicha institutning **84 nafar** (*Rossiya 9, Malayziya 2, Frantsiya 6, Qozog'iston 7, Xitoy 19, Belarus 4, Qirg'iziston 3, Gruzziya 3, Tailand 8, Chexiya 6, Slovakiya 4, Singapur 1, Armaniston 5, Eron 1, Avstraliya 1, Ozarbayjon 1, Koreya 1, Gretsiya 3*) mutaxassislari xorijning etakchi metrologiya institutlarida seminar hamda o'quv kurslari orqali malaka oshirdi.

Bundan tashqari, yil yakuniga qadar qo'shimcha **21 nafar** mutaxassislarni bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida xorijning (*Tayland – 6, Rossiya – 4, Xitoy – 3, Slovakiya – 2, Chexiya – 2, Germaniya – 2, Singapur – 1, Turkiya – 1*) yetakchi metrologiya tashkilotlariga malaka oshirishga yuborish rejalashtirilgan

Joriy yil 1 may kuni Institut tomonidan metrologiya tarixini o'rganish, sanoat va iqtisodiyotdagi ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, shuningdek, ushbu yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish maqsadida **“Me'yorlar merosi” muzeyi** tashkil etildi.

IV. “O'zbekiston akkreditatsiya markazi” DM.

2025 yil yanvar-avgust oylarida jami **272 ta** buyurtma (**102 ta** akkreditatsiya, **170 ta** kengaytirish) kelib tushgan bo'lib, shundan;

87 ta ijrosi (**26 ta** akkreditatsiya, **61 ta** kengaytirish) ta'minlangan;
3 ta buyurtma buyurtmachini xohishiga ko'ra (**2 ta** akkreditatsiya, **1 ta** kengaytirish) bekor qilingan;
182 ta buyurtma (**74 ta** akkreditatsiya, **108 ta** kengaytirish) akkreditatsiya jarayonlari davom etmoqda.

2025 yilning yanvar-avgust oylarida davomida jami **52 ta** MBO va MX akkreditatsiyadan o'tkazildi (jami **597 ta** mavjud), jumladan:

29 ta sinov laboratoriyalari (jami **303 ta**);

8 ta qiyoslash laboratoriyalari (jami **116 ta**);

6 ta mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi (jami **90 ta**);

4 ta menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi (jami **31 ta**);

3 ta kalibrlash laboratoriyalari (jami 29 ta);

1 ta standart namunalar ishlab chiqaruvchisi (jami 2 ta);

1 ta xodimlarni sertifikatlashtirish organi (jami 2 ta) akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Hisobot davrida 309 ta akkreditatsiya qilingan sub'ektlarda davriy baholash o'tkazilib, natijada 63 ta akkreditatsiya guvohnomasining amal qilish muddati tasdiqlangan, 232 ta (75,1%) to'xtatilgan, 2 ta tugatilgan, 12 ta qaror qabul qilish jarayonida.

Yuqoridagi o'tkazilgan davriy baxolashlarning 44 tasi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlari hisobiga to'g'ri kelib, shulardan 28 tasi (63,6%) akkreditatsiya guvohnomasi to'htatilgan, 15 tasi tasdiqlangan, 1 tasi qaror qabul qilish jarayonida

2025 yilning avgust oyida tasdiqlangan Media rejaga asosan radioda 2 ta, You Tube da 1 ta, Markaz sayti va ijtimoiy tarmoqlar orqali jami 53 ta chiqishlar qilindi.

V. Nazorat inspeksiya.

1. 2025 yil yanvar-avgust oyida amalga oshirilgan ishlar

Profilaktika yo'nalishida Qonunchilik talablarini buzilishini oldini olish maqsadida joriy yil boshidan 14 456 ta tadbirkorlik sub'ektiga ogohlantirish xatlari va tarqatma materiallar yuborildi.

Qorqalpog'iston 959 ta, Andijon 1022 ta, Buxoro 955 ta, Jizzax 873 ta, Qashqadaryo 903 ta, Navoiy 1026 ta, Namangan 845 ta, Samarqand 1039 ta, Surxondaryo 1009 ta, Sirdaryo 952 ta, Toshkent vil 956 ta, Farg'ona 1070 ta, Xorazm 917 ta, Toshkent shahar 1930 ta.

Laboratoriyalarning texnik jihatdan malakaliligini ma'qullash

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan joriy yil boshidan laboratoriyalarning texnik jihatdan malakaliligini ma'qullash bo'yicha 510 ta korxona va tashkilot bilan shartnomalar imzolandi.

Bugungi kun holatiga 375 ta korxonada o'rganish ishlari amalga oshirildi. Ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etgan 328 ta komissiya yakuniy dalolatnomalariga muvofiq texnik jihatdan malakaliligini ma'qullash guvohnomasini olishga ruxsat berildi.

Baholash ishlari o'tkazilgan 24 ta korxona belgilangan muddatlarda kamchiliklarini bartaraf etmaganligi bois laboratoriyaning texnik jihatdan malakaliligini ma'qullash rad etildi.

Shuningdek, qolgan 32 ta sinov laboratoriyalarida ma'qullash bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilmoqda.